



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



UDK: 636:311.1+311.2 CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH

Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Andijon fakulteti

Mutaxassislik ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrasida i.f.f.d.(Phd) dotsenti

E-mail: a.aysachev_89@mail.ru

ORCID: 0009-0002-9987-3225

Annotatsiya. Ushbu maqolada chorvachilik mahsulotlari statistik ko'rsatkichlar tizimining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga moslashuvi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbek, rus va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimlari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. O'zbekiston qishloq xo'jaligi statistikasida chorvachilik tarmog'iga oid statistik kuzatuv va tahlil jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida yangilangan 8 blokli ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik statistikasi, ko'rsatkichlar tizimi, fermer xo'jaligi, statistik tahlil, raqamli qishloq xo'jaligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, aqlli ferma.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ теоретических основ системы статистических показателей продукции животноводства, её структурных элементов и адаптации к требованиям современной цифровой экономики. Выполнено сравнительное исследование систем показателей, разработанных узбекскими, российскими и зарубежными учёными. В целях дальнейшего совершенствования статистического наблюдения и анализа в сфере животноводства Республики Узбекистан предложена обновлённая система показателей, состоящая из 8 блоков.

Ключевые слова: статистика животноводства, система показателей, фермерское хозяйство, статистический анализ, цифровое сельское хозяйство, показатели продуктивности, умная ферма.

Abstract. This article presents a scientific analysis of the theoretical foundations of the system of statistical indicators for livestock products, its structural components, and its adaptation to the requirements of the modern digital economy. A comparative study of indicator systems developed by Uzbek, Russian, and foreign scholars was conducted. In order to further improve statistical observation and analytical processes in the livestock sector of Uzbekistan, an updated system of indicators consisting of eight interconnected blocks is proposed.

Keywords: livestock statistics, system of indicators, farm enterprise, statistical analysis, digital agriculture, productivity indicators, smart farm.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida chorvachilik tarmog'i aholini go'sht, sut, tuxum, jun va boshqa muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, qishloq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati 245 222,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 4,1 foizga oshgan [1]. Mazkur tarmoqning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan chorvachilik sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini xolis hamda kompleks baholash ilmiy-amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Statistik ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy tahlilning muhim vositalaridan biri bo'lib, u chorvachilik tarmog'ida yuz berayotgan miqdoriy va sifat o'zgarishlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, amaliyotda qo'llanilayotgan mavjud ko'rsatkichlar tizimi raqamli iqtisodiyot, "Aqlli ferma" konsepsiyasi hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini yanada to'liqroq qamrab olish imkoniyatiga ega. Mazkur yo'nalishda statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va zamonaviy talablar asosida boyitish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.



Tadqiqotning maqsadi chorvachilik mahsulotlari statistik ko'rsatkichlar tizimini nazariy jihatdan tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ilmiy maktablar tajribasini qiyosiy o'rganish hamda O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, zamonaviy talablarga javob beruvchi yangilangan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ekonometrik modellashtirish, qishloq xo'jaligini tadqiq etish hamda iqtisodiy-statistik tahlil masalalari N.M. Soatov [2], Yo.A. Abdullayev [3], T.Sh. Shodiyev [4], U.P. Umurzoqov va A.J. Toshboyev [5], B. Salimov [6], A.X. Aytibjonov [7], I.K. Jumayev [8], U.S. Muxiddinova [9], S. Ochilov va Sh. Ergasheva [10], A.A. Aysachev [11] kabi mahalliy olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlari orasida qishloq xo'jaligi va chorvachilik statistikasi masalalari V.N. Afanasyev va A.I. Markova [12], A.P. Zinchenko [13], A.I. Gozulov, V.P. Grankov va G.S. Merzhanov [14], N.K. Koborov tahriri ostida tayyorlangan ilmiy ishlanmalar [15], B.I. Bashkatov [16] hamda B.I. Smagin [17] tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan K.E. Davis [18] kichik fermer xo'jaliklarida statistik tahlil metodologiyasini, J.M. Schupbach [19] esa qishloq xo'jaligiga investitsiyalarning ta'sirini tadqiq etgan. Mazkur olimlarning ilmiy ishlari agrar iqtisodiyot va statistika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib, chorvachilik statistikasini takomillashtirish uchun muhim nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida "Aqlli ferma" texnologiyalari, raqamli monitoring tizimlari hamda innovatsion statistik ko'rsatkichlarni yanada kengroq integratsiya qilish istiqbollari mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot mavzusidan kelib chiqib, uning maqsadi chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari tahlili, induksiya va deduksiya, abstraksiya hamda modellashtirish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va strategik hujjatlari [20][21], FAO [22] hamda Eurostat [23] hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari qo'llanilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi so'nggi 20 yil davomida barqaror ravishda ortib borgan bo'lib, uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5–7 foizni tashkil etmoqda [24].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rinov A.A. [25] ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan ishchi kuchining qariyb 27 foizi faoliyat yuritgan (2020-yil). Chorvachilik ushbu tarmoqning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanish dinamikasini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida kuzatish mumkin (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, mlrd. so'm¹

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
Chorvachilik mahsuloti jami	104 378	126 392	151 285	167 229	193 840
Shu jumladan: go'sht	48 120	58 960	72 140	80 350	93 210
Sut	38 450	47 810	55 620	62 140	71 380
Tuxum (mlrd. dona)	6,1	6,5	6,8	7,1	7,4
Jun (ming tonna)	18,4	19,1	19,8	20,3	21,0
O'sish sur'ati (%)	—	121,1	119,7	110,5	115,9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan 2019–2023-yillarda chorvachilik mahsulotlarining jami hajmi 104 378 mlrd. so'mdan 193 840 mlrd. so'mga yetib, 85,7 foizga oshgan. Jumladan,

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari [1] asosida tuzilgan.



go'sht ishlab chiqarish hajmi 93,7 foizga, sut ishlab chiqarish 85,7 foizga, tuxum yetishtirish 21,3 foizga hamda jun yetishtirish 14,1 foizga ortgan. Mazkur natijalarga erishishda davlat tomonidan chorvachilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etgan.

Chorvachilik statistikasi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan statistik ko'rsatkichlar tizimining turli variantlari taklif etilgan. Ushbu yondashuvlar o'rtasida prinsipial tafovutlar deyarli kuzatilmaydi, asosiy farqlar esa ko'rsatkichlar tarkibi va ularning qamrov darajasida namoyon bo'ladi. Xo'jaqulov X.D. va boshqalar [7] ikki blokli tizimni taklif etgan bo'lsa, Zinchenko A.P. [13] to'rt blokli, Koborov N.K. tahriri ostidagi ilmiy ishlar [15] besh blokli, Bashkatov B.I. [16] esa yetti blokli tizimni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Tahlil natijalariga ko'ra, Shodiyev T.Sh. [4] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan qayd etilganidek, chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlari tizimini yanada takomillashtirish jarayonida moliyaviy samaradorlik, ekologik barqarorlik hamda raqamli monitoring bilan bog'liq ko'rsatkichlarning ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategik hujjatlarida [20] hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida [21] qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, agrosanoat korxonalarini ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali monitoring qilish va baholash yangi avlod statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ochilov S. va Ergasheva Sh. [10], Jumayev I.K. [8], Muxiddinova U.S. [9] hamda Aysachev A.A. [11] tadqiqotlari natijalari asosida muallif tomonidan chorvachilik statistikasi uchun 8 blokdan iborat yangilangan ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, uning tarkibi va asosiy elementlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlarining yangilangan 8 blokli tizimi²

Blok	Blok nomi	Asosiy ko'rsatkichlar
I	Hayvonlar soni va tarkibi	Tur, jins, yosh bo'yicha son; zotli hayvonlar ulushi; poda tuzilmasi; ro'yxatga olish shakllari
II	Podani qayta ishlab chiqarish	Urchiuv koeffitsiyenti; qisirlilik; bolalarni saqlash; o'lim ko'rsatkichi; mavsumiylik
III	Chorvachilik mahsulotlari	Go'sht, sut, tuxum, jun — natural va qiymat shaklida; eksport ulushi
IV	Hayvonlar mahsuldorligi	So'g'inlik suti; sertuxumlik; jun qirqimi; tirik og'irlik o'sishi
V	Zootexnik tadbirlar	Em-xashak bazasi; veterinariya xizmati; naslchilik; kasallik ko'rsatkichlari
VI	100 ga yer maydoniga ko'rs.	Hayvonlar zichligi; 100 ga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
VII	Ishlab chiqarish omillari	Mehnat unumdorligi; kapital sig'imi; ixtisoslashuv; raqamlashuv darajasi
VIII	Chorvachilik samaradorligi	Foyda; rentabellik; mahsulot tannarxi; investitsiya qaytimi; eksport salohiyati

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimining asosiy yangiligi VII blokda "Aqlli ferma" texnologiyalarining joriy etilish darajasini aks ettiruvchi raqamli ko'rsatkichlarning kiritilganligi hamda VIII blokda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining alohida yo'nalish sifatida baholanishi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv Umurzoqov U.P. va Toshboyev A.J. [5] tomonidan tavsiya etilgan fermer xo'jaliklarini kompleks baholash konsepsiyasiga mos keladi. Shuningdek, Salimov B. va hammualliflar [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlarni alohida guruh sifatida ajratish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Mahsuldorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda Soatov N.M. [2] tomonidan taklif etilgan metodologik yondashuvdan foydalaniladi. Unga ko'ra, bir sigirdan o'rtacha sog'ib olingan sut miqdori $S(s)=JS/SS$ formulasi orqali aniqlanadi, bunda JS — jami sog'ib olingan sut hajmi (kg), SS — sog'in sigirlar soni (bosh)ni ifodalaydi. Rentabellik darajasi esa $R=(Daromad-Xarajat)/Xarajat \times 100\%$ formulasi yordamida hisoblanadi. Abdullayev Yo.A. [3] ta'kidlaganidek, mazkur ko'rsatkichlarni Laspeyres usuli asosida hisoblangan taqqoslama narxlardagi fizik hajm indekslari bilan birgalikda tahlil qilish inflyatsiya ta'sirini bartaraf etgan holda yanada aniq va xolis baholash imkonini beradi.

"Aqlli ferma" konsepsiyasining amaliyotga keng joriy etilishi chorvachilik statistikasi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda va statistik kuzatuv tizimining yangi ko'rsatkichlar bilan boyitilishini taqozo etmoqda. Botirova H.E.

2 Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



[26] o'z tadqiqotida agrar soha mutaxassislarini zamonaviy texnologiyalarga tayyorlash darajasini ham statistik baholash tizimida aks ettirish zarurligini ta'kidlaydi. Aysachev A.A. [11] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham chorvachilik statistikasini raqamli monitoring tizimlari bilan integratsiyalash istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda belgilangan strategik vazifalar ijrosini monitoring qilishda statistik ko'rsatkichlar tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, tarmoq statistikasining shaffofligi, to'liqligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiluvchi yangilangan statistik ko'rsatkichlar tizimini amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlar tizimining tarmoq rivojlanishini samarali boshqarish va baholashdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud ikki, to'rt yoki yetti blokli ko'rsatkichlar tizimlari chorvachilik sohasida yuz berayotgan zamonaviy o'zgarishlarni, jumladan, "Aqli ferma" konsepsiyasi, raqamli texnologiyalar va eksport salohiyatini baholash bilan bog'liq ko'rsatkichlarni to'liq qamrab olmaydi. Shu bois chorvachilik faoliyati natijalarini har tomonlama statistik tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va tarmoq samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi omillarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilgan 8 blokli ko'rsatkichlar tizimi an'anaviy zootexnik ko'rsatkichlarni iqtisodiy samaradorlik, raqamli monitoring hamda innovatsion parametrlar bilan uyg'unlashtirgan holda chorvachilik tarmog'ini kompleks baholash imkonini beradi. Tahlillar natijasiga ko'ra, O'zbekistonda 2019–2023-yillarda chorvachilik mahsulotlari hajmi 85,7 foizga oshgan. Mazkur natijalar tarmoqning izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, statistik monitoring tizimini ekologik, raqamli va sifat ko'rsatkichlari bilan yanada boyitish chorvachilik tarmog'ining holati hamda rivojlanish istiqbollari yanada to'liq baholash imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari mamlakatimiz chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Hosildor yaylovlar, qulay tabiiy-iqlim sharoiti va tajribali fermerlar salohiyati ushbu yo'nalishning muhim ustunliklari hisoblanadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda chorvachilik statistikasi ko'rsatkichlarini Eurostat [23] va FAO [22] standartlari bilan uyg'unlashtirish tarmoqning xalqaro talablarga mos rivojlanishiga, aholi farovonligi va mamlakat iqtisodiy salohiyatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi amaliyotiga 8 blokli ko'rsatkichlar tizimini joriy etish, Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan fermer xo'jaliklarida raqamli monitoring tizimlarini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda Moliya vazirligi tomonidan imtiyozli kreditlar va lizing mexanizmlari orqali fermer xo'jaliklarining "Aqli ferma" texnologiyalarini joriy etishini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019. <https://lex.uz/docs/-4567334>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. – www.stat.uz (2023).
4. Soatov N.M. (2003). Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino. – 743 b.
5. Abdullayev Yo.A. (2002). Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: O'qituvchi. – 592 b.
6. Shodiyev T.Sh. va boshqalar. (1999). Ekonometrika: o'quv qo'llanma. – T.: Sharq. – 240 b.
7. Umurzoqov U.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. (2007). Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: Iqtisod-Moliya. – 226 b.
8. Salimov B. va boshqalar. (2004). Fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodi. – T.: TDIU. – 124 b.
9. Aytibjonov A.X. va boshqalar. (2007). Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. – 124 b.
10. Jumayev I.K. (2011). Fermer xo'jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ekonometrik bashoratlash. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. – T. – 43 b.
11. Muxiddinova U.S. (2010). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. – T. – 36 b.
12. Ochilov S., Ergasheva Sh. (2008). Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T. – 192 b.



13. Айсачев А.А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне // Экономика и инновационные технологии. – № 4. – С. 197–208.
14. Афанасьев В.Н., Маркова А.И. (2002). Статистика сельского хозяйства: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика. – 272 с.
15. Зинченко А.П. (1998). Сельскохозяйственная статистика с основами социально-экономической статистики. – М. – 345 с.
16. Гозулов А.И., Гранков В.П., Мержанов Г.С. (1967). Статистика сельского хозяйства. – М.: Статистика. – 267 с.
17. Статистика сельского хозяйства / Под ред. Н.К. Коборова. (1989). – М.: Финансы и статистика. – 387 с.
18. Башкатов Б.И. (2001). Статистика сельского хозяйства с основами общей теории статистики: курс лекций. – М. – 352 с.
19. Смагин Б.И. (2007). Экономический анализ и статистическое моделирование аграрного производства. Монография. – Мичуринск: МичГАУ. – 23 с.
20. Davis K.E. (2004). Technology Dissemination among Small-Scale Farmers. Dissertation. – University of Florida. – 265 p.
21. Schupbach J.M. (2014). Foreign Direct Investment in Agriculture. Master of Arts Thesis. – University of Zurich. – P. 21–28.
22. FAO. (2023). The State of Food and Agriculture 2023. – Rome: FAO. – 186 p.
23. Eurostat. (2023). Agricultural Statistics: Main Results. – Luxembourg.
24. United Nations Development Programme (UNDP). Jahon aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi bo'yicha ma'lumotlar. – www.uz.undp.org
25. O'rinov A.A. (2023). Qishloq xo'jaligi tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri // International Scientific-Practical Conference. – 2023-yil 6–7-iyun.
26. Botirova H.E. (2021). O'zbekistonda agrar soha mutaxassislarini tayyorlash jarayoni tendensiyalari (1991–2015-yillar janubiy hududlar misolida). PhD dissertatsiyasi. – Termiz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>